

## CHO'LPON "YORQINOY" DRAMASINING O'ZBEK DRAMATURGIYASIDAGI AHAMIYATI VA ASARDAGI JADIDCHILIK RUHIYATI

**Xusanova Mohlarxon Odil qizi**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU talabasi

Ilmiy rahbar- H.Ahmedov f.f.n, dotsent

mohlarxonhusanova@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o'zbek milliy dramachilik tarixi, unda jadid adabiyot namoyondalarining dramatik asarlari, xususan, Abdulhamid Cho'lponning "Yorqinoy" dramasi, uning milliy dramaturgiyadagi o'ziga xos o'рни, epos bilan aloqasi, personajlarning ruhiyati va kechinmalari haqida fikr yuritiladi.

### **Kalit so'zlar:**

"Yorqinoy" dramasi, "shartlilik", teatr, Yorqin, Po'lat botir, Nishobsoy begi, jadid adabiyoti, Cho'lpon, spektakl

XX asr boshlarida dunyoga kelgan o'zbek milliy yozma dramaturgiyasi ibtido, taraqqiyot va tanazzul davriga ega. Bu tarixni ijtimoiy- siyosiy voqelik tarixidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Jadid adabiyoti, dramaturgiyasi va estetikasi ijtimoiy g'oya taqozosi va talabi bilan vujudga keldi. Jadidlarning konkret islohotchilik pozitsiyalari, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirib, taraqqiy etgan jamiyat barpo etish va milliy ong tarkib topgach mustaqil davlat uchun kurash niyati ular yaratgan sahna asarlarining mavzu doirasini belgiladi. Jadid adabiyoti bilan ko'p o'zbek olimlari shug'ullangan, ayniqsa professor Begali Qosimov tadqiqotlari e'tiborga loyiq. [1. B. Qosimov. Jadid adabiyoti, T. 2004].

Aristotel o'zining "Poetika" asarida "dramaning o'zi harakat, chunki u harakat qiluvchi shaxslarni aks ettiradi"[2. Aristotel. Poetika. T. 1986, 10-bet] degan fikri bilan drama va teatr bir biriga qanchalik bog'liq tushuncha ekanini ta'kidladi. Shundan buyon barcha "adabiytshunoslik" kitoblarida teatr va dramani bir-biriga bog'lab ta'rif beriladi.

I.Sulton kitobida shunday keltirilgan: "Teatr sahnasida qo'yish uchun yozilgan adabiy asarlarning jami adabiyotning uch asosiy turidan biri bo'lgan dramatik turni yoki, qisqa qilib aytganda dramani tashkil etadi"[3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, T, 1986, 257-bet].

Drama va teatr haqida gap ketar ekan bu tushunchalar Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangilik bo'lmaganini ta'kidlash zarur.

*"O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos teatr san'ati miloddan avvalgi birinchi mingyillik o'rtalarida shakllangan bo'lib, Sharqning boshqa teatrlari kabi, diniy marosim, musiqa, taqlidiy o'yinlar, xalq qahramonlik tomoshalari, kulgu va pahlavonlik o'yinlarida namoyon bo'lgan"*[4. M. Rahmonov."Хамза и узбекский театр", 37-bet]

Teatr san'ati Markaziy Osiyoda turli davrlarda evolutsiyaga uchrab, o'zgarib bordi. Temuriylar va Shayboniylar davlari yemirilib, xonliklar tashkil topa boshlaganda dramaturgiya rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi.

Misol uchun, Qo'qon xoni Xudoyorxon saroyida 75 kishilik xalq cholg'u asboblari to'dasi, 60 kishilik raqs dastasi, 30 kishilik aktyorlar truppasi bo'lgani[5. Turkestanskiye vedomosti, 1982-yil, 24-aprel] haqida ma'limotlar bor. Bular Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida ham o'z ifodasini topgan.[6. Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon", 35-36-boblar.]

XX asrning 10- yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o'zbek milliy teatri vujudga kelish davri bo'lib kirdi. Millatni ozodlik va ma'rifatga erishtirishning buyuk amallaridan tiri teatr, deb bilgan jadid namoyondalari qisqa fursatda samarali ijod qildilar.

*“Milliy adabiyotimizda an’anaviy oqsab kelgan nasrchilikning yangilanishi va rivojlanishiga kuchli impuls berilgani, shuningdek, milliy dramaturgiya va publitsistikaga asos solingani ham jadidchilik g’oyalari bilan bog’liqdir. Sababki, ayni shu janrlar o’zlari ko’zlagan maqsad yo’lida katta samara berishi mumkinligini yaxshi bilgan jadid ijodkorlari ularga ayrica ahamiyat bergan.”*[7. D. Quronov, “Cho’lpon nasri poetikasi”, 57-bet]

O’zbek dramaturgiyasining rivojiga ulkan hissa qo’shgan Abdulhamid Cho’lpon ijodining dastlabdi yillaridanoq dramalar yoza boshlagan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, 1914 yildayoq, ya’ni 16-17 yoshlarida “Boy” nomli drama yozgan. Lekin bizgacha bu asar yetib kelmagan. Bu drama haqida qaysi hujjatlarda aytib o’tilgani ham noma’lum.

Shekspir, Gossi, Goldoni, Lope de Vega, Molyer kabi dramaturglar maktabida tahsil olgan, Thakur, Husayin Jovid kabi san’atkorlarning ijodiy laboratoriyasini o’rgangan Cho’lpon 20- yillarda ulkan shuhrat qozongan “Yorqinoy” dramasni yaratdi va 7 yil ichida 3 marta sahnalashtirildi. [8. N. Karimov va b. XX asr o’zbek adabiyoti, 183-bet]

Ushbu drama ijtimoiy- falsafiy hususiyatga ega bo’lib, muallif bu bilan adoatsiz tuzumga qarshi o’z fikrini shu yo’l bilan yetkazishga harakat qilgan.

Pyesaning markazida Yorqin va Polat, O’lmas botir, xizmatchi qiz Qumri, Nishobsoy begi, Momo xotin, Kal, Xonzoda kabi personajlar ularning atrofida harakat qilishadi. [9. Cho’lpon. Yana oldim sozimni. “Yorqinoy” dramasi. 273-374-betlar ]

Dramaning tasvir predmeti- harakat, u obyektning plastik obrazini yaratadi, dramada subyekt- ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Agar bular dramaning turga xos belgilovchi xususiyati bo’lsa, dramatik asarning qurilishi, poetik o’ziga xosligini eng muhim xususiyati uning sahna uchun yaratilishidir. Ya’ni sahnaga mo’ljallab yozilgan asar ijroni ham ko’zda tutishi zarur bo’ladi. Shunga ko’ra dramadagi harakat- sujet voqealari makon va zamonda cheklangan bo’ladi. Ijro vaqtiga sig’ish uchun asarning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlantiruvchi sujetga qurilishi taqozo qilinadi. Dramatik asar voqealari ko’pi bilan 4-5 joyda kechishi mumkin. [10. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish, 260-bet]

Cho’lponning “Yorqinoy” dramasiidagi voqealar 5 joyda: O’lmas botirning qo’rg’on boqchasi, boshqa bir boqcha, Nishobsoy begining boqchasi shu bekning haram uylaridan biri, Po’latning qarorgohi va xon saroyida kechadi. Odatda bir parda davomida sodir bo’luvchi voqealarning bitta joyda kechishi, sujet voqealari ayni shu joylar bilan bog’liq holdagina rivojlanishini e’tiborga olsak, bu narsa dramatik asarning sujet qurilishini belgilaydigan asosiy omil bo’lib qolishi anglashiladi.

Dramaning markazida Yorqin va Po’lat munosabatlari tursa-da, asar ishq muhabbat haqida emas. Yorqinoyning sevgisi katta psixologik muammolarni qo’yishda bir vosita, xolos. Insoniy burch va tuyg’u o’rtasidagi doimiy kurashi qahramonlar xarakterida yoritib berilgan.

Zamonaviy drama eposga ta’sir o’tkazganiday, epos ham zamonaviy dramaga sezilarli ta’sir o’tkaza oladi. Yetakchi qahramon- Yorqinoy ko’pgina o’zbek ayollari singar mushtipar, to’rt devor ichida, o’z taqdiriga ko’ngan jabrdiyda emas, balki ko’pgina o’zbek eposlarida uchraganday erk yo’lida kerak bo’lsa erkaklar bilan tenglasha oladigan matonatli ayol sifatida tasvirlangan.

Pyesadagi markaziy qahramonlardan biri Po’latdir. Bu personaj Shekspirning Hamleti singari “Yo o’lish, yo qolish” qabilida ish tutadi. Po’lat yo burch, yo sevgi deganda ikkilanmay burchni tanlaydigan qahramon. Qumriga- “Seni sevmayman, sevolmayman. Mening ko’nglimda boshqa narsaning sevgisi”- deganda kitobxon Yorqinni tushunadi, lekin aslida u ona-yurt, vatanga bo’lgan muhabbat edi. U Yorqinoyni sevadi, lekin uning uchun burchi ustun.

Drama so’ngida Po’lat tilidan ijtimoiy adolat haqida ancha teran fikrlar aytiladi. Uzoq kurashlardan so’ng toj-u taxt Po’latning qo’liga o’tadi. Shu sahnada Po’lat orzu- havas Yorqinoy bilan baxtli saodatli umr o’tqazishni emas, toj-u taxt -og’ir yuk, uning orqasida xalq turganini ta’kidlaydi.

Umuman, “Yorqinoy” ishq- muhabbatni bir afsona tarzida bayon etuvchi romantik ertak emas, Umumbashariy muammolar haqida baxs yurutuvchi, erk, muhabbat, adolat mardlik va nomus masalalaridan naql qiluvchi, ko’pgina g’oyalari bugungi kunda ham qiymatini yo’qotmagan ijtimoiy-falsafiy drama darajasiga ko’tarilgan asar.

O'z davrida ulkan muvaffaqiyat qozongan ushbu drama ilk bor Uyg'ur tomonidan sahnalashtirilib, 1920- yilning 24- noyabr kuni tomoshabinlarga taqdim etilgan. "Yorqinoy" dramasi ikkinchi marta tataristonlik taniqli rejissiyor Kamol Ikkinchi 1926- yil sahnalashtirdi. Uchinchi marta bu spektaklga yana Uyg'ur murojaat qildi va 1927- yili sahnalashtirdi. Bu safar Yorqinoy rolini Moskvada tahsil olib qaytgan taniqli aktrisa Zamiraxonim Xidoyatova ijro etdi. [8. Naim Karimov N. Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, 1999-y, 151- bet]

Dunyo- bu teatr. Teatr esa ibratxona. [11. Shuhrat Rizayev, Jadid dramasi, 45-bet] U insonni fikrlashga undaydi. Unda kechagi kun, bugun va kelajak aks etadi. "Yorqinoy" esa o'zining badiiy jozibasi, xalqona tili bilan hali uzoq vaqt o'rnak bo'la oladigan durdona asar.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lponning "Yorqinoy" dramasi Hamza va Behbudiy, Avloniy dramalari kabi XX asr boshlaridagi milliy-ozodlik harakatining ajralmas bir qismi o'laroq tasavvur uyg'otadi. Muallif folkloriga xos sujet orqali yangicha g'oyani targ'ib etishga intilgan. Bu asarni milliy adabiyotimiz yutuqlaridan deya hisoblashga haqlimiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: "Маънавият". – 2004. – 296 б
2. Аристотель. "Поэтика". Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1980. 168 б.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. "Ўқитувчи" нашриёти, Т.: 1986. 408 б.
4. Рахмонов М. Узбекский театр. Т. Гослитиздат, 1975. – 320 с.
5. "Туркестанский ведомости" gazetasi, 1982 yil, 24 апрель сони.
6. Абдулла Қодирий. "Меҳробдан чаён". Т.: Гослитиздат, 1959. – 220 б.
7. Қуронов Дилмурод. Чўлпон насри поэтикаси / Масъул муҳ. О. Шарафиддинов, У.Норматов. – Т.: «Шарқ», 2004. –288 б.
8. N. Karimov- XX asr o'zbek adabiyoti, "O'qituvchi" T., 1999. – 544 б.
9. Чўлпон. Яна олдим созимни. Т. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – 375 б.
10. Қуронов Дилмурод ва б.. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Akademnashr, 2013. – 408.
11. Ризаев Ш. Жадид драмси. Т. ШАРҚ, 1997. – 320 б.